



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA

Ergasheva Oyjamol Jahongirovna

Denov tadbirkolik va pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
o.ergasheva@dtpi.uz

Jumayeva Durdona Ravshonmurod qizi

durdonajumayeva01@gmail.com.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17331393>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiya imkoniyatlari keng yoritilgan. Unda ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va integratsion metodlardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Maqolada xorijiy tajribalar, milliy ta'lim tizimidagi yangiliklar hamda pedagogik jarayonni takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, integratsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, interfaol usullar.

Аннотация: В данной статье подробно раскрыта роль инновационных подходов и междисциплинарной интеграции в системе начального образования. Рассмотрены пути повышения эффективности обучения, формирования самостоятельного мышления у учащихся, внедрения современных технологий и применения интеграционных методов. Проанализированы как зарубежный опыт, так и современные изменения в национальной системе образования.

Ключевые слова: инновация, интеграция, начальное образование, методика, интерактивные методы.

Annotation: This article explores the role of innovation and integration in primary education. It analyzes how innovative teaching methods and cross-disciplinary integration can improve learning efficiency, foster critical and independent thinking among pupils, and enhance the use of modern technologies.

Both international practices and current reforms in the national education system are examined.

Keywords: innovation, integration, primary education, methodology, interactive methods.

Аннотатсия: Дар мақола мавқеи навоариҳо ва ҳамгироӣ дар низоми таҳсилоти ибтидоӣ баррасӣ мешавад. Муаллиф роҳҳои баланд бардоштани самаранокии таълим, ташаккули тафаккури мустақил дар хонандагон, истифодаи технологияҳои муосир ва методҳои ҳамгироиро таҳлил намудааст. Дар матн таҷрибаи хориҷӣ ва навгониҳои низоми миллии маориф низ инъикос ёфтааст.

Калидвожаҳо: навоарӣ, ҳамгироӣ, таҳсилоти ибтидоӣ, методика, усулҳои интерактивӣ.

Bugungi kunda ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiya jarayonlari o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim omil



hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars jarayoni faqatgina bilim berish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, yangilikka intilish va muammolarni yechishga o'rgatish jarayonidir.

Innovatsiya — bu yangilik, ta'lim jarayonida ilgari qo'llanilmagan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etishdir. Integratsiya esa fanlararo bog'liqlikni mustahkamlash orqali o'quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan metoddir. Bugungi kunda "STEAM" (Science, Technology, Engineering,

Arts, Mathematics) yondashuvi boshlang'ich ta'limda keng tatbiiq etilib, bolalarning ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qilmoqda^[1].

Shuningdek, innovatsion ta'limda raqamli texnologiyalar, masofaviy o'qitish vositalari va interfaol dasturlar keng qo'llanilmoqda. Boshlang'ich ta'limda "aqlli doska", elektron resurslar, multimediali darsliklar o'quvchilarni yanada faol va qiziqarli o'qishga undaydi. O'quvchilar bilimlarni faqat eshitib emas, balki ko'rib, mustaqil bajarib o'zlashtiradi. Bu jarayon integratsiya bilan uyg'unlashganda yanada samarali natija beradi. Masalan, matematika va tabiatshunoslik fanlarini birgalikda o'rganish orqali o'quvchi matematik formulalarni tabiat hodisalarini tahlil qilishda qo'llashni o'rganadi^[2].

Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv o'qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahoratni talab etadi. Asosiysi, metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishdir. Bu borada interfaol metodlar — "Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq skeleti", "Insert" kabi usullar samarali qo'llanilmoqda^[3].

Integratsiya esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni tizimlashtirishga yordam beradi. Dars jarayonida ona tili, o'qish, matematika va tasviriy san'atni uyg'unlashtirish orqali bolalarda nafaqat bilim, balki ijodkorlik, estetik did, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Bunday integratsion yondashuv o'quvchini kelajak hayotga tayyorlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham innovatsion yondashuvlar bosqichma- bosqich tatbiiq etilmoqda. "Ilm-fan – 2030" strategiyasi, raqamli ta'lim loyihalari, yangi darslik va metodik qo'llanmalar aynan boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida innovatsion va integratsion yondashuvlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shu o'rinda ta'limda integratsiya nafaqat bilimlarni uyg'unlashtirish, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi ekanini ta'kidlash lozim.

Masalan, musiqiy ta'lim matematika bilan, jismoniy tarbiya esa tabiatshunoslik bilan uyg'unlashganda, o'quvchilarda intellektual, jismoniy va estetik sifatlar baravar shakllanadi.

Xorijiy tajribalar ham integratsiya va innovatsiyaning boshlang'ich ta'limdagi o'rnini tasdiqlaydi. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimida "fenomen asosida o'qitish" metodikasi joriy etilgan. Bu usulda o'quvchilar biror mavzuni turli fanlar kesimida o'rganadi va mustaqil loyihalar ishlab chiqadi. Shu orqali o'quvchilar bilimlarni amaliy hayot bilan bog'lashni o'rganadilar^[4].

Innovatsion va integratsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda eta oladi, yangi g'oyalarni ilgari suradi va ijodiy faoliyatga jalb qilinadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishda, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya jarayonlari ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir. Innovatsion yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangilik yaratishga undasa, integratsiya ularning bilimlarini tizimlashtirib, hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning uyg'unligi o'quvchilarda qiziqish, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya o'zaro uyg'unlikni taqozo etadi. Bu orqali bolalar mustaqil fikrlashni, fikr almashinuvini, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar. Bu jarayonda bolalar uchun "Muammoli vaziyat" metodi qulay usuldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
2. Alimova N. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2023.
3. Azizxo'jaeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
4. Hasanov U. Ta'limda fanlararo integratsiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.
5. Karimova D. Innovatsion ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.
6. Normurodova M. STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: Nodirabegim, 2024.
- Xolmatova G. Boshlang'ich ta'lim metodikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2022.